

Xushxabar: Surxon qizi Umida Omonova shaxmatning ikkita yoʻnalishida jahon chempioni boʻldi



Gretsiyaning Rodos shahrida shaxmat boʻyicha bolalar va oʻsmirlar oʻrtasida oʻtkazilgan jahon chempionatining rapid va blits yoʻnalishlarida Surxondaryo shaxmat maktabi vakili 16 yoshli Umida Omonova oʻz yoshi toifasida jahon chempioni boʻldi.

Jahon chempionatida dunyoning 40 davlatidan 330 nafardan ortiq yosh shaxmatchi ishtirok etdi.

Maʼlumot uchun, Umida Omonova 2006 yilda Surxondaryo viloyati SHerobod tumanida tugʻilgan, 2 karra jahon chempioni, 2 karra jahon chempionati sovrindori, 10 karra Osiyo va 14 karra Oʻzbekiston chempioni boʻlgan. Xalqaro toifadagi Fide “WFM” ayollar sport ustasi hamda Respublika terma jamoa aʼzosi. 2021 yilda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sovrindori boʻlgan.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)